

INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH**Ne'matova Shaxnoza Shamsiddin qizi**

Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti Email: najmiddinovashaxnoza26@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson qadrini yuksaltirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish masalalari yoritiladi. Maqolada ochiq va adolatli boshqaruv, jamoatchilik faolligi, so'z erkinligi kabi omillarning ahamiyati tahlil etilib, inson manfaatlariga xizmat qiladigan davlatni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Inson qadrini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati, erkinlik, inson huquqlari, jamoatchilik nazorati, xalqparvar davlat, shaffof boshqaruv, demokratik islohotlar, ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi.*

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы повышения человеческого достоинства, обеспечения прав и свобод граждан, становления дружественного к народу государства через развитие свободного гражданского общества. В статье анализируется значение таких факторов, как открытое и справедливое управление, общественная активность, свобода слова, а также показаны приоритетные направления формирования государства, служащего интересам человека.*

Ключевые слова: *Продвижение человеческого достоинства, гражданского общества, свободы, прав человека, общественного контроля, государства, ориентированного на интересы народа, прозрачного управления, демократических реформ, социальной справедливости, гражданской активности.*

Abstract: *This article discusses the issues of building a democratic state through enhancing human dignity, ensuring the rights and freedoms of citizens, and developing a free civil society. The article analyzes the importance of factors such as open and fair governance, public activism, and freedom of speech, and outlines priority areas for building a state that serves human interests.*

Keywords: *Enhancing human dignity, civil society, freedom, human rights, public oversight, democratic state, transparent governance, democratic reforms, social justice, civic activism.*

KIRISH

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga

qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni, "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat¹⁴. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Xususan, unda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, adolat va qonun ustuvorligi –xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalarga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Mazkur nutqda mamlakat rahbari kelgusi besh yil uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilab berar ekan, yurtimizdayashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi. Ma'ruzaning e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o'ringa shaxs, inson qadri yuqori o'ringa qo'yilib, "inson –jamiyat –davlat¹⁵" degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmati bosh maqsadga aylangan. Tan olib aytish joizki, o'tgan besh yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq shu bilan birga mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Kelgusi besh yilda bu borada ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega, albatta.

ASOSIY QISM

O'tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi. Qayd etilganidek, ushbu taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat. Birinchi yo'nalish inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan. Inson qadrini ulug'lash, har kimning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, ushbu yo'nalishni amalga oshirish uchun quyidagi maqsad va vazifalar belgilab berildi¹⁶:

1-maqsad: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi vanazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

2-maqsad: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish.

¹⁴ <https://lex.uz/docs/-5841063>

¹⁵ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.

¹⁶ https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

3-maqсад: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamonatlablariga moslashtirish.

4-maqсад: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo’naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish.

5-maqсад: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

6-maqсад: Davlat boshqaruvi tizimida ma’muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish.

7-maqсад: Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish.

8-maqсад: Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat’iy ijrosini ta’minlash.

9-maqсад: “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokraziyani bartaraf etish.

10-maqсад: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

11-maqсад: Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

12-maqсад: Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliyhuquqiy asoslarini takomillashtirish. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” mavzusi bo’yicha mavjud ilmiy, siyosiy-huquqiy va nazariy adabiyotlar mazkur yo’nalishning serqirra va ko’p komponentli ekanini ko’rsatadi. Tadqiqotchilar fikrlariga ko’ra, inson qadri konsepsiyasi, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqparvar davlat modeli o’zaro chambarchas bog’liq bo’lib, biri ikkinchisining rivojlanishini taqozo etadi. A. de Tokvil, G. Gegel, R. Dvorkinlarning ilmiy qarashlarida fuqarolik jamiyati davlat hokimiyatini muvozanatlashtiruvchi mustaqil ijtimoiy makon sifatida talqin qilinadi. Ular jamiyatdagi ommaviy axborot vositalari va jamoat birlashmalarining faoliyati orqali erkinliklar himoyasi ta’minlanadi, deya ta’kidlaydilar. R. Putnam va J. Habermas ishlarida fuqarolik jamiyati demokratik ishtirok, jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy kapitalni oshirishning eng muhim vositasi sifatida ko’riladi. Putnamning mashhur “ijtimoiy kapital nazariyasi¹⁷” ga ko’ra, jamiyat qanchalik uyushgan va faol bo’lsa, davlat boshqaruvi shunchalik samarali bo’ladi.

Sharq mumtoz falsafasida — ayniqsa, Navoiy, Forobiy asarlarida — jamoa hamjihatligi, mahalla institutining qadimiy shakllari, o’zaro yordam va mas’uliyat kabi tushunchalar fuqarolik jamiyati institutlariga mos keluvchi fikrlar sifatida talqin etiladi. Zamonaviy davlat boshqaruvi bo’yicha adabiyotlar (G. Simon, D. Easton, M. Weber) davlatning xalq oldidagi mas’uliyati, ochiqlik, hisobdorlik kabi tamoyillarni asosiy mezon sifatida ko’rsatadi.

13-M. Weberning “rasmiy boshqaruv” modeli samarali davlat boshqaruvi uchun tartib, tizimlilik va qonuniylik zarurligini ta’kidlaydi. Yangi davlat boshqaruvi (New

¹⁷ <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m6583>

Public Management) bo'yicha tadqiqotlarda davlatning fuqaroga xizmat ko'rsatish sifati asosiy mezon sifatida ko'riladi. O'zbekiston va boshqa davlatlar tajribasini o'rgangan olimlar xalqparvar davlatni qurishda shaffoflik, korrupsiyaga qarshi siyosat va raqamli boshqaruvning ahamiyatini alohida qayd etadi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, inson huquqlarini himoya qilish uzluksiz davom etadigan jarayon ekanligi aytish mumkinki, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz inson qadrini yuksaltirish borasida kelgusi besh yillik uchun muhim vazifa va maqsadlarini belgilab olgan. Demakki, keng ko'lamli islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Ularni amalga oshishi uchun esa har birimiz mas'uldirmiz.

Zero mamlakatimiz kelajagi va rivoji uchun hamjihatligimiz va birdamligimiz muhimdir. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ham hamjihat bo'lishiga ishonamiz.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezunga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son // <https://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
5. 2022 —2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son// <https://www.lex.uz>
6. Maslow, A. "Inson motivatsiyasi nazariyasi". – Nyu-York: Harper & Row.